

ERKIN KASB TANLASHNI IJTIMOIIY PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Gulchehra Safarovna Pardayeva

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti*

*Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi,
gulisaforovna68@yandex.ru*

Toyirova Dildora Olimovna

*O'zFIPI Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
3- bosqich talabasi*

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy tarbiya ko'nikmasini rivojlantirish metodikasi va boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy hunarlarga yo'naltirish texnologiyalari to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: kasb tanlash, tarbiya, mehnatdan qoniqish, kasbiy layoqat, kasbiy bilim, kasbiy moslashtirish.

Аннотация: В статье рассматривается методика формирования национальных педагогических умений будущих учителей начальных классов и технологии ориентации учащихся начальных классов на национальные профессии.

Ключевые слова: выбор карьеры, образование, удовлетворенность работой, профессиональные способности, профессиональные знания, профессиональная адаптация.

Abstract: The article examines the methodology for developing national pedagogical skills of future primary school teachers and technologies for orienting primary school students to national professions.

Keywords: career choice, education, job satisfaction, professional abilities, professional knowledge, professional adaptation.

Jamiyatning barcha sohalarida olib borilayotgan tub islohotlar O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni talablari asosida shakllantirilayotgan uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini barcha bosqichlarida faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalari rivojini ta'minlovchi yangi konsepsiyaning yaratilishi uchun zamin bo'ladi.

Erkin kasb tanlash shaxsni xar tomonlama rivojlashtirishning zarur sharti hamda ijtimoiy taraqqiyot mezonlarining biri sifatida e'tirof etiladi. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini va bozor iqtisodiyoti ehtiyojlarini hisobga olish kerak. O'ziga kasb tanlash o'quvchi shaxsining bilish sohasidagi faolligi va mustaqilligini rivojlantirish omili sanaladi. Kasbga layoqatlilikni aniqlash, kasbga yo'llash va uning

erkin, to'g'ri tanlashiga zamin yaratadi. Layohat – bu kishining go'dakligidan anglab yetilmagan, qandaydir bir kasbga intilishi emas, balki ijtimoiy burchga sodiq bo'lib qolish yo'lida mehnat qilishga psixologik jihatdan kishining tayyor ekanligi, o'z amaliy faoliyatida jamiyatga ma'lum darajada foyda keltirishi deb hisoblanadi. Layohat odam shaxsining shakllanish jarayonida ongli bilish subyekti hamda voqyealikni faol ravishda o'zgartiruvchi sifatida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Kasbiy yo'nalganlikning rivojlanayotgan nazariyasi yoshlarning kelajagini aniqlanishida o'zining rolini faol ekanligini taxmin etadi. Asosiy e'tibor turli faoliyat turlarini egallash jarayonida shaxs rivojlanishini o'rganishga qaratiladi.

Kasbiy yo'nalganlik o'quv-tarbiyaviy ishning tarkibiy qismi sifatida ko'rinadi. Shu narsa tan olinadiki, inson o'zining tug'ma ma'lumotlariga ko'ra ko'pchilik kasblarga loyiqdir. Kasb tanlashga tayyorgarchilik yoshlarga ijtimoiy atrof-muxit tomonidan tarbiyaviy ta'sir tizimi sifatida amalga oshiriladi. O'smirlar yigit va qizlar tomonidan o'zlari tanlagan kasb faoliyatining ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini anglab yetilishi- erkin kasb tanlashning asosidir. Jamiyat talablariga odamning ehtiyoji va imkoniyatlariga javob bera oladigan kasb faoliyati kishida qoniqish his-tuyg'ularini vujudga keltiradi, shaxsni ichki kuchlarini qo'zg'atadi, unda qiziqish uyg'otadi va nihoyat kasbni egallashga imkon beradigan is'tedod paydo qiladi. Qilingan mehnatdan qoniqish tuyg'usi-bajariladigan faoliyatning yuksak darajada samarali va sifatli bo'lishini hal qiluvchi omilidir[1].

Kasbning erkin, ongli ravishda tanlanishi hamda shu kasbni egallashga yordam beradigan kasb-hunar ta'limi muassasalari shaxsningo'zini ham rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib beradi. Shaxsning psixologik tuzilmasi kasb faoliyatining tuzilmasiga qaraganda ancha murakkab va shu bilan birga mukammalroqdir. Shaxsning psixologik tuzilmasida odam hayoti va faoliyatining butun tashqi va ichki boyligi uning bilimlari, muloqoti va mehnati jamlangan bo'ladi. Shaxs tuzilmasi odamning rivojlanish jarayonida ta'lim-tarbiyaning, oilaning, o'zaro shaxsiy aloqalarning, o'quv va ishlab chiqarish jamoalarining ichidagi bog'liqlikning ostida va tashqi muhitning boshqa ta'sirlari natijasida shakllanadi. Yoshlarni kasbga yo'llash va ular tomonidan to'g'ri kasb tanlanishi muammosi xalqning ijodiy kuchlaridan samarali foydalanish ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim asoslaridan biriga aylangan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish masalalari xozirgi davrda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchi yoshlar o'rtasida kasb-hunarni targ'ib qilish ishlarini keng ravishda uyuqoqlik bilan tashkil etilgan taqdirdagina kasb tanlash muammosi muvaffaqiyatli ravishda hal etilishi mumkin. O'quvchi yoshlarni kasb –hunarlar to'g'risida tegishli ma'lumotga ega emasliklari, kasbiy faoliyatning qanday turlari mavjudligini bilmasliklari juda ko'p hollarda ongsiz ravishda kasb tanlashga va bu kasbga tayyorlaydigan ta'lim muassasalariga kelib qolishiga sabab bo'lmoqda[2]. Kasb-hunar

to'g'risidagi axborot yetarli bo'lmagan sharoitlarda tevarak atrofdagi kishilarning ta'siri ostida mutloqo tasodifiy ravishda kasb tanlash xollari uchrab turadi. Bunday kasb tanlash jamiyat vazifalariga xam, yoshlarni shaxsiy imkoniyatlari va qiziqishlariga ham muvofiq kelmaydi Chuqur anglab yetilgan va kasbga nisbatan barqaror shaxsiy qiziqish ko'pincha mazkur faoliyatga yaroqlilikning bilvosita dalili hisoblanadi. Biroq kasb tanlash vaqtida yolg'iz qiziqishning o'zinigina hisobga olish to'g'ri bo'lmaydi. O'rta maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilarning qiziqishlar ko'pincha tasodifiy bo'ladi. Halq xo'jaligi va ishlab chiqarishning aniq extiyojlaridan kelib chiqmaydi faqat nixoyalanmagan qiziqish tufayli kasb sohasiga kirib kelinadi. Bu qiziqish ba'zan kasbga oid ozgina bilimga ega bo'linganligi tufayli bir qadar asoslangan ham bo'ladi. Bu xol ayniqsa kasb tanlayotgan o'smir har xil kasblar to'g'risida juda tor tasavvurga ega bo'lgan kishilar orasida yashagan vaqtlarda ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'z-o'zidan ma'lumki kasb-hunar to'g'risidagi cheklangan bilim bilan ixtiyoriy tarzda mustaqil kasb tanlab bo'lmaydi Shunday qilib ongli ravishda kasb tanlash muammosini hal qilayotgan vaqtda har qanday kasbga oid ish g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligini va u rivojlanayotgan jamiyatning mushtarak vazifalarini hamkorlikda hal qilish uchun zarur vosita ekanligini hisobga olish va bunga amal qilish zarur. Biror bir mehnat turiga mutloqo yaroqsiz odam bo'lmaydi, har bir bir mehnatkash kishi o'z imkoniyatlariga muvofiq keladigan ish joyidagina eng ko'p mehnat unumdoriligi ko'rsatadi. Bizning vazifamiz har bir shaxsni ma'lum ma'noda foydali shaxsga aylantirishdan iboratdir. Amalda kishi qanday kasb tanlashini belgilovchi omillardan yana biri moddiy manfaatdorlik omilidir. Ko'pincha o'smirlar "Yaxshilik qilish"ni istagan katta yoshli yaqin kishilari uning miyasiga anashu gapni singdirmoqchi bo'ladilar. Bunday hollar kasb tanlashga yetarli darajada ongli munosabatda bo'lmaslikdan kelib chiqadi. Ular shaxsning u yoki bu kasbga yaroqliligini belgilovchi barcha asoslarni yetarli darajada hisobga olmaydilar. Binobarin uning moddiy jihatdan ta'minlanishini ham yetarli darajada to'g'ri baholay olmaydilar. Kasbga oid topshiriq va vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun kishiga muayyan individual xususiyatlar mavjud bo'lishi zarur ekanligini o'quvchilarga ko'rsatib berish lozim. Bunday xususiyat odamlarda bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Shuning uchun bir ishning muvaffaqiyatli faqat kasbiy tayyorgarlik darajasidagina emas balki, shu bilan birga shaxsning xususiyatlari kasb talablariga qayd darajada muvofiq kelishiga xam bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham moddiy jihatdan ta'minlanganlik kasbning o'zidagina bog'liq bo'lmay balki bu so'zning keng ma'nosida o'sha kishining mazkur kasbga qay darajada yaroqligiga ham bog'liqdir.

Maktabda kasbga yo'llash tadbirlarining asosiy vazifasi o'quvchilarga kasblar mohiyatini chuqur anglatishdan ularga kasb tanlashda yordam ko'rsatishdan iboratdir. Jamiyat extiyojlarini va o'quvchilarni shaxsiy imkoniyatlarini xisobga olgan holda o'quvchilarda kasbga yo'nalganlikni shakllantirishdan iboratdir.

Pedagogik jarayonlarda ijtimoiy psixologik jihatdan ya'ni kasbhunar ta'lim muassasalarining shart-sharoitlari va imkoniyatlari yoki egallagan kasbi bo'yicha kelajakda ishga joylashish jarayonlarida muammolarga duch kelishi, o'quvchilarning kasbni egallash o'quviga, kasbiy layoqat va qiziqishlariga salbiy o'zgarish xulq-atvorini yuzaga keltirishi mumkin. Bunda, avvalo ta'lim muassasalarda faoliyat yurituvchi pedagoglardan o'quvchi shaxsi bilan psixologik-pedagogik yondashish jarayonlarida yetarli bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lishlari bilan birga o'quvchi shaxsini maqsadli kasbga yo'naltirish va moslashtirish yuzasida tavsiyalar berish malakalariga ham ega bo'lishlarini talab etadi.

Yoshlarni ayniqsa kasb tanlash davri o'smir o'tish davriga to'g'ri keladi, bu xam kasb tanlashda muayyan qiyinchiliklarga uchrab, bolalarning xulqiy og'ishlariga asosiy sabab bo'luvchi omillarni yuzaga chiqaradi[3], ya'ni:

✓ o'smirda o'tish davriga xos "kattalik hissi" ning paydo bo'lishi kuzatilganda ota-onalar hamda pedagog-murabbiylar uni tan olmaydilar. Chunki bola hali ham moddiy, ham ma'naviy tomondan kattalarga tobe, ular unga mustaqillikni osonlikcha bermaydilar; murakkab vaziyatlarda o'zini nazorat qila olmaslik, buning uchun sabr-bardoshning hali shakllanmaganligi;

✓ oiladagi nosog'lom vaziyat, ota-onalarning o'smirlik yosh davri psixologiyasi borasida bilimga ega emasliklari, bazan er-xotin o'rtasidagi oddiy murosasozlikning yo'qligi, hatto, oilaning noto'liq maqomga kelib, yani murakkab pedagogik vaziyatlardan chiqish borasida ota-ona bilimining yetishmasligi;

✓ o'qishda tengqurlaridan ortda qolishi, o'smirning ajratib qo'yilishi; bolaning o'ziga nisbatan ishonchsizligi, o'ziga bo'lgan bahoning pastligi (yoki bazan haddan ziyod yuqoriligi);

✓ bola qobiliyatlarining kattalar tomonidan salbiy baholanishi, undagi mavjud fazilatlarning ota-ona yoki pedagoglar tomonidan o'z vaqtida va o'z o'rnida etirof etilmasligi natijasida bola xulq-atvorida salbiy xatti-xarakatlarni namoyon bo'lishi;

✓ ommaviy axborot vositalari orqali berilayotgan zo'ravonlik, qiynoq yomonlikning jazosiz qolishi kabi axborotlarning to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinishi, televideniye yoki internet tarmoqlari orqali biz takidlagan jixatlarning namoyish qilinishi va bola uni to'g'ridan-to'g'ri qabul qilishi uchun to'siqlarning yo'qligi natijasida unda mafkuraviy imunitetining zaiflashuvi;

✓ o'quvchilarni kasbga yo'naltirish va tanlagan kasblariga ijtimoiy kasbiy moslashtirish jarayonlarini uzluksiz ravishda ota-ona va ta'lim muassasalar tomonidan doimiy uzviylikni amalga oshirilmasligi natijasida, o'quvchida kasblar olami unga quyilgan psixofiziologik talablar va imkoniyatlari, qiziqishi, moyiligi, layyoqati, qobiliyatiga mos kasb tanlovini kattalar tomonidan pedagogik-psixologik tarzda asoslanmaganligi bois, ularda kasb tanlashda xavotirlanish, qo'rqish, ishonchsizlik, kasb to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmaslik vaziyatlarini sodir etishi mumkin.

Bunday vaziyatlar ayniqsa voyaga yetmagan xatar guruhiga mansub bolalarda kasb tanlash va unga ijtimoiy moslashish jarayonlariga salbiy munosabat shakllanadi: Kasbiy yo'nalganlikda yuqori natija qo'lga kiritishda bilim maskanlarida kasbga yo'naltirish tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etilishi va o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim muassasalarida kasbga yo'llash tadbirlarining asosiy vazifasi o'quvchilarga kasblar mohiyatini chuqur anglatishdan shu orqali o'quvchi yoshlarga kasb tanlashlarida amaliy ko'mak berish, jamiyat ehtiyojlarini va o'quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularda kasbga yo'nalganlikni shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Kasb tanlash ishlarini tashkil etilishi o'z mazmuni va tashkiliy jihatlariga ko'ra psixologik muammolarni qisman bo'lsa ham bartaraf etilishida amaliy yordami bo'ladi, o'quvchilarni erkin holda mustaqil kasb tanlash imkoniyatiga zamin yaratadi. Tadbir o'tkazilishidan oldin tadbirni o'tkazish zaruriyatini aniqlash lozim. Bu zaruriyat dunyoda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqyea yoki mamlakat miqyosidagi keng qamrovli ma'naviyma'rifiy tadbirlar, yangi qonun va qarorlar, islohotlarning mazmunmohiyati, odamlarni o'ylantirayotgan dolzarb ijtimoiy muammolar bo'yicha aholining ishonchli manbalardan aniq va atroflicha axborot hamda ma'lumotlar olishi bilan bog'liq bo'lishi muhim. Tadbirlar, zaruriyatga qarab, ro'y bergan yoki ro'y berishi kutilayotgan voqyea va hodisaning g'oyaviy jihatdan turlicha talqin etilishi, ular bo'yicha ortiqcha mish-mishlar tarqalishining oldini olishni ko'zlagan bo'lishi kerak. Shu bilan birga tadbir samaradorligini oshiradigan eng asosiy jihatlardan biri ko'rgazmali vositalar, shiorlar, tasviriy san'at namunalari, hikmatli so'zlar, xarita, rasmlar va slaydlardan unumli foydalanish qatnashchilarda tadbirni yanada mazmun mohiyatini chuqur anglashlariga to'rtki bo'lishi bo'ladi desak to'g'ri bo'ladi.

Mazkur bahamjihatlik ta'minlansa, o'quvchilarning mustaqil, ongli erkin kasb tanlashiga imkoniyat hamda ularga ijtimoiy kasbiy taraqqiyot mezonini yaratib, kelajakda biz kutgan malakali mutaxassislar va barkamol avlodning muvaffaqiyatga erishishiga keng yo'l ochgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdukodirov A.A., Rashidov X.F. O'zluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. T.: Maktab va xayot, 2002.-220 b.
2. Xolmatov P. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish texnologiyasi. Monografiya. -T.:Fan. 2006
3. Pardayeva G., Samandarova D. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarining uzviyligini ta'minlash. The progress of science journal collection of materials may- 2023 Party- 4 Collection-1

4. Pardayeva G. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarni milliy hunarlarga yo'naltirishga tayyorlash texnologiyasi //Innovasii v pedagogike i psixologii. - 2022. - T. 5. - №. 4
5. Pardayeva G. Boshlang 'ich sinflarda zamonaviy texnologiyalar //Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi. - 2021. - S. 42-45.
6. Эшпулатов Ш.Н., Пардаева Г.С. Глава 7. Подготовка будущих учителей начальных классов к инновационной деятельности в системе высшего образовательного учреждения //Innovations in education. - 2015. - С. 69-86.